

**RESPUBLIKA MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT MARKAZI**

**“MA'RIFAT” TARG'IBOTCHILAR JAMIYATI  
IJTIMOIY-MA'NAVIY TADQIQOTLAR INSTITUTI**

**“UCHINCHI RENESSANS – MA'RIFATLI  
JAMIYAT SARI!” MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA  
ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI**

**MATERIALLARI**



Toshkent – 2023

**II. IKKINCHI SHARQ UYG‘ONISH DAVRI – “TEMURIYLAR  
RENESSANSI”DA BUNYOD ETILGAN ULUG‘ SALTANATNING  
O‘RNI VA AHAMIYATI, ILM-FAN RAVNAQI**

32. M.Kaxarova – Temuriylar davrida ilm-ma’rifatning yuksalishi.....	184
33. M.Pardayeva – Ikkinchi sharq uyg‘onish davri mutafakkiri Alisher Navoiy asarlarida naqshbandiya tarixi masalalari ....	190
34. F.A.Akramova – Amir Temurning ma’naviy qarashlari psixologiyasi.....	196
35. Sh.S.Kushakov – Falsafa tarixi sharq Renessansining ikki dahosi qarashlari ko‘zglasida.....	201
36. A.A.Gulova – Navoiy nazdidagi komil inson .....	207
37. Z.B.Bilolova – Yoshlarning yuksak axloqiy-tarbiyaviy sifatlarini kamol toptirishda Amir Temurning psixologik ibratidan foydalanish.....	214
38. X.Raxmatova – Temuriylar Renessansi davrining sulhparvar siymosi .....	218
39. U.I.Maraimova, O‘.K.Qodirova – Ikkinchi Sharq uyg‘onish davri “Temuriylar Renessansi”da bunyod etilgan ulug‘ saltanatning o‘rni va ahamiyati, ilm-fan ravnaqi .....	222
40. M.Sh.Zohidov – Ikkinchi Sharq uyg‘onish davri – “Temuriylar Renessansi”da bunyod etilganulug‘ saltanatning o‘rni va ahamiyati .....	227
41. S.Nurumbetova – Afg‘oniston o‘zbeklari ma’naviyatida gavharshodbegim omili .....	233
42. G.S.Bazarova – Ilm-fan taraqqiyotida “Temuriylar Renessansi”ning ahamiyati .....	236
43. J. M. Omonxonov – Temur va Temuriylar davri an’anaviy xalq bayramlari xususida .....	242
44. Z.T.Abdullayev – Mirzo Ulug‘bek (dengizdan tomchi) .....	250
45. B.U.Sayfiyeva – Bobur ijodiy faoliyatining mavzu ko‘lami ....	257
46. G.M.Alijonova – Rizouddin ibn Faxriddin ijodida Imom Buxoriy ilmiy merosi tahlili .....	261
47. N.Ibrohimova – Temuriylar Renessansi davrida mutolaa va kitobxonlikka bo‘lgan e’tibor .....	265

## NAVOIY NAZDIDAGI KOMIL INSON

**Anorgul GULOVA,**

*Buxoro davlat universiteti*

*“Yurisprudensiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar” kafedrasida dotsenti*

Oʻrta asrlarda oʻziga xos falsafa sifatida shakllangan tasavvuf va tasavvuf adabiyoti Sharq xalqlari maʼnaviyatini yuksaltirishda munosib oʻrinni egallagan boʻlsa, ularning duvrugʻini darvesh, soʻfiy, solih, faqir va orif kabi timsollar dunyoga yoygan.

Xojagon tariqati mutasavviflari asarlarini tahlil qilib, xulosa chiqarish mumkinki, orif Allohni tanigan, bilgan va ilohiy maʼrifatdan mukammal xabardor solik. Borliqda foni boʻlib, Xaqning borligʻida tirik yurmoq orzusi ila yashash tufayli orifning holatlarida shoshqinlik, besaranjomlik, shikoyat va tangdillik koʻzga chalinmaydi. Orif mushohada yuritarkan, Allohning hayot, ilm, iroda, qudrat singari sifatlarini teran idrok etish yoki oʻzlashtirish bilan cheklanmaydi, balki butun koinot, borliq va olamning sir-asrorlaridan ham chuqur ogohlikka yetishadi. Orif oxirat zavqi va mukofoti uchun emas, «valiylilik ishoratlarini anglamoq» uchun davomli va sokin bir nazar bilan Tangri dargohiga talpinadi. Orif - ilohiy fayz odami<sup>72</sup>.

Shayx Abu Sayd Abul Xayrga soʻfiylilik nima, deya savol berilganida, u: «Qoʻlida bor narsasini oʻzgalarga bagʻishlash, boshdagi bor nomaqbul fikr-xayollarni tashlash va boshga nima (qiyinchilik) tushsa — chidash», — deb javob bergan («On chi, ki dar dast dory — bidixiy, on chi, ki dar cap dory — binixiy va on chi, ki ba cap oyad — nachaxiy»). Alisher Navoiy taʼbiri bilan aytganda, agar badavlat bir musulmon mol-mulking qirqdan birini, yaʼni ikki yuz dirhamdan besh dirhamni zakotga bersa, soʻfiy orif 205 dirhamni zakotga (kambagʻallarga) beradi.

Demak, shariatda boylikning qirqdan biri zakot qilib beriladigan boʻlsa, tasavvuf tariqati vakili qoʻlida bor mulkni

---

<sup>72</sup> «Марказий Осиё фалсафий тафаккури тараққиётида тасаввуф таълимотининг ўрни ва аҳамияти» мавзусида республика миқёсидаги илмий-назарий анжумани материаллари. Бухоро. 2020. 49-б.

kishilarga ehson qilib, o'zi xokisorlikda, kambag'allikda umrguzaronlik qiladi. Gado va darvesh o'rtasidagi farq yer bilan osmoncha bo'lib, gado qorin tuyg'izish ilinjida yurgan pasthimmat, or-nomusdan yiroq tilanchi bo'lsa, so'fiyning darveshligi ongli-ixtiyoriy sa'yu-harakat natija-sidir. Darveshlik — uning e'tiqodi, u tariqat maslagini qabul qilish barobarida, shu yo'lda jonini, borlig'ini baxshida etishga tayyor.

O'zini Haq yo'liga bag'ishlab, dunyodan yuz o'girgan; boylik, oltin-javohirga bepisand qarab, insoniy sha'nu sharaf, hikmat va ma'naviy ganjinani har qanday zaru zevar, sarvatu masnaddan afzal deb bilgan; qanoatli-diyonatli darveshning tilanchiligi (toliblik) Iloh jamoliga yetishish, g'aybning siru asrorini kashf etish uchun tinmay izlanish, ruhni imtiyozlantirib, yayratib borishdir<sup>73</sup>.

Hazrat Navoiy ko'pgina asarlarida so'fiy darveshlar, oriflar timsolini goh majoziy timsollar orqali, gohida real shaxslar misolida tasnif etadi. So'fiy shoir «Nasoyim ul-muxabbat» va «Lison ut-tayr» asarlarida turli shayxlarning hayoti va faoliyati bilan bog'liq hikoyatlarni keltirib, orifu-darveshlar siyrati, xulq-atvori, ilohiylik sifatlarini tasvirlaydi.

Oriflarga xos sifatlar sanalgan tavoze', hilm, qanoat, sidqu safo, boshiga tushgan har qanday kulfatlarni sinov deya qabul qilib, doimo, Alloh hukmiga rozilikda yashash kabi najib xislatlar to'g'risida sof tasavvufiy asar hisoblangan «Nasoyim ul-muhabbat» mukaddimasida ehtiros bilan yozadi. Hazrat Navoiyning xulosaviy asari bo'lgan «Mahbub ul-qulub»da ham darveshlar axloqi masalasiga alohida yondashilgan.

Tanqidiy ruhda yozilgan asarda darveshlarga bag'ishlangan qism va fasllarda salbiy ta'riflar emas, aksincha ijobiy sifatlar bayoni, to'g'rirog'i tasavvufiy g'oyalari tahlili asosiy o'rinni egallaydi.

Ma'lumki, asar uch qismdan iborat bo'lib, uning birinchi qismida turli ijtimoiy tabaqalar axloqi haqida fikr-mulohazalar bayon qilinsa, ikkinchi qismida darvesh va oriflar xulq-atvori, tariqat talablari to'g'risida so'z boradi. Asarning uchinchi qismi

---

<sup>73</sup> Комилов Н. Тасаввуф. Т.: “Мовароуннахр” – “Ўзбекистон”, 2009. 162-б.

esa «tanbeh»lardan iborat boʻlib, unda insonni zalolat botqogʻiga eltuvchi turli nuqsonlar qalamga olinadi.

Birinchi qism qirq fasldan iborat boʻlib, uning qirqinchi fasli “Darveshlar zikrida” deb nomlagan. Mazkur faslda darvesh, rind («xarobot ahli») ijtimoiy toifalar sifatida talqin qilinib, shu kabi fribgar, riyoyi shayxlar jamiyatda shakllanib qolgan bir zararli unsurlar sifatida qattiq tanqid qilinadi.

Tasavvuf Navoiyga jaholatdan qutulish, dunyoni bilishga chanqoq yurakni maʼlum darajada tinchitishga koʻmak bergan. Buning ikki sababi bor: birinchisi shuki, Navoiy yashagan zamonning aqliy taraqqiyot darajasi, fan rivoji real dunyo voqealarini ilmiy asosda tushuntirishga ojizlik qilardi. Ikkinchisi esa, bu yana muhimroq: insonning aqliy imkoniyatlari, donoligi bilan axloqi, aʼmol-niyati orasida mavjud boʻlib kelayotgan nomuvofiqlikdir. Navoiy aqlu-zakovati hayratlanarli, qilni qirq yoruvchi kishilar ichida nafs domiga tushgan, zulm va badkirdorligi bilan mashhur boʻlganlarini koʻp koʻrgan edi. Shuning uchun ulugʻ gumanist shoir axloqni — fazilatlar tarbiyasini birinchi oʻringa qoʻyardikim, bu ham tasavvufona murojaat etishga olib kelardi. Zero, tasavvuf butun eʼtiborni aynan inson axloqini poklashga qaratib, shu maqsadda turli yoʻl-yoʻriqlar, amaliy tadbirlar ishlab chiqqan edi. Tasavvuf odamni vijdoni bilan yuzma-yuz qoʻyib, oʻzi haqida uylashga majbur etar, haqiqat va eʼtiqod pokligi ruhida tarbiyalardi<sup>74</sup>.

“Mahbub ul-qulub” asarining birinchi qismida «Darveshlar zikrida» deb nomlangan fasl mavjud boʻlib, unda Navoiy darvesh haqida quyidagi fikrlarni bayon qiladi: «Darvesh uldurkim, boʻlgʻay rizoandesh, agar ichida boʻlsa yuz nesh, toshi boʻlgʻay marhamoyin va malomatkesh. Darvesh kerakkim sidqu fano tariqin tuzgay oʻzin nechukki bor, andoq koʻrguzgay. Anoniyat gʻilzatigʻa qattiq riyozatlar bila safo bermish boʻlgʻayva nafsoniyat shiddatidin azim mujohidalar bila chiqib, farq tariqiga kirmish boʻlgʻay va fano dorulamoni jamoatxonasi gʻa yetmish boʻlgʻay. Himmati nazarigʻa mosivullohi nomavjud,

---

<sup>74</sup> Комилов Н. Тасаввуф. Т.: “Мовароуннахр” – “Ўзбекистон”, 2009. 159-б.

balki Vujudi mutlaqdin oʻzga barcha nobud. Ichi toshi bila muvofiq, balki ortigʻroq, botini zohiri bila musoviy, balki yorugʻroq. Agar zohirida botin ixfosi uchun koʻrunsa, andin murode boʻlsa malomatlashliq. Botini sofi-zohir tiyraligi koni munofiy. Darvesh toʻni yirtuq andoqtururkim, ganji makoni buzuq. Capo ahli jahonda andoqtururkim, Faridun ganji vayronda.

Maʼni ahli haqiqati maxfiy va surat ahlining daʼvi va daʼvati haqiqatda bemaʼni. Eronlar hollari suratini yoshurubturlar va malomat suratida naʼli bozguna urubturlar va zohirlari binosin buzubturlar va botinlari asosin tuzubturlar. Qazodin ne kelsa, oʻzlarin rizoga yosobturlar va olam ahlining qattiq ranju irik malomatigʻa chidabdurlar. Yemak — ichmakdin kechibdurlar, Haq rizosin istarda gʻam yeb va kon ichibdurlar. Rizovu taslim zoviyasi — maqomlari, fano bodiyasida oromlari. Adabu tavozeʼ alargʻa kesh, dushmanu doʻstigʻa nekandesh. Bu sifatu oyin bila boʻlgʻon erur darvesh». <sup>75</sup>

Mazmuni: «Darvesh shunday odamki, Xudo rizoligi bilan uning fikru zikri, doimo, band boʻladi, ichida yuz dard mavjud boʻlsa hamki, tashqi koʻrinishi malham singari yumshoq (va shifoli) boʻladi, u kishilaring taʼna-malomatiga eʼtibor bermaydi. Darvesh sadoqat va fano yoʻlini tanlagan, oʻzini boricha namoyon qiladigan kishidir. U kibr gʻalizliklarini kuchli riyozatlar bilan tozalab, (koʻnglini) poklagan hamda dunyoviy nafsni qattiq kurashishlar orqali mahf etib, faqrlik yoʻlini tanlagan va fanoning xavfu xatardan xoli jamiyatiga yetgan odam boʻlsin. Uning himmati nazarida dunyodagi jamiki gʻam-tashvish va xazinalar arzimas, yoʻqday boʻlib namoyon boʻlsa, balki, Mutlak vujud (darvesh uchun Parvardigordan boshqa vujud mutlaqo koʻrinmasa. Zohiri botini bilan hamohang, balki botiniy dunyosi ortiqroq, boʻlsa, balki botini nuri yorugʻroq, chaqnasa. Modomiki, tashqi dunyosida ichki dunyosining xavfi uchun nimadir namoyon boʻlsa, bu uning malomatlashligi maqsadi uchun boʻlsa, botinning safosi zohirining zulmatini rad qiladi.

---

<sup>75</sup> Алишер Навоий. МАТ, 14-жилд, 46-47-бетлар.

Darvesh to'lining yirtiligi, xuddi, oltin-javohir yashiringan maskan xaroba bo'lganiday gapdir. Sababi shundan iboratki, safo ahlining dunyodagi o'rni, shoh Faridun xazinasining vayrona joyda birkiritib qo'yilganligi kabidir. Shunday ekan aytish mumkinki, ma'ni ahlining sirlari yashirin va aksincha, surat ahlining kibrga berilganligi va da'vatlari aslida bema'nidir. So'fiylar (mardlar) suratlarini pinhon tutadilar va malomatiy tarzida teskari muhr urib, tashqi dunyolari binosini vayron qilib, ichki dunyolari poydevorini to'g'rilabdirilar. Ular boshlariga tushgan har qanday musibatga rozidirlar va atrofdagi kishilarning qattiq, ranju azobiga, ta'na-dashtnomlariga bardosh qiladilar. Ular ortiqcha yeb-ichishdan qat'iy ravishda o'zlarini tiyib, Oллоh rizoligiga musharraf bo'lish uchun g'amu-anduhga muhtalo bo'lib, qon yutadilar. Shuning uchun darveshlarning maqomlari — rizo va taslim, hordiq chiqaradigan maskanlari — fano cho'lidir. Adab va tavoze', do'stu dushmanga birdek ezgulik ravo ko'rish ularning odatlari. Demak, darvesh mazkur sifat va qoidalar bilan bezangan kishidir.

Hazrat Navoiyning darvesh surat va siyratiga bergan ta'rifi shu qadar bir-biriga mantiqiy bog'liqlikda berilganki, agar biz darvesh siymosini davlatga qiyoslasak, ushbu bayonnoma, xuddi, o'sha davlatning xaritasidek gavdalangan.

Har bir jumlada orifga xos bo'lgan ma'lum bir fazilat bayon qilinib, mazkur xislatlar marjonday ketma-ket tizilib, bir-birini to'ldiradi va izohlaydi.

Xususan, Tangri taolo tomonidan belgilangan taqdirga rozilik va malomatiylik dastlabki jumlada, fonivashlik navbatdagi jumlada, riyozat bilan poklanish uchinchi jumlada, to'rtinchi jumlada faqr maqomini qo'lga kiritish, beshinchi fikrda esa Mutlaq vujud tomon sa'y-harakat qilishda buyuk himmatni namoyon qilib, yo'qlik dunyosidagi barcha ovoragarchiliklardan yiroq bo'lish, zohiriy va botiniy olamning bir-biriga mutanosibliigi hamda botiniy olamdan taralayotgan nur kishilar qalbiga nuri ilohiy tuhfa etishi haqida fikr bildiriladi.

Mutasavvuf Navoiy so'fiy ichki dunyosining maftunkorligi to'g'risidagi g'oyani takror-takror keltirishining boisi Hazrat

Navoiy uchun orif xulq-atvori bu – uning zohiran namoyon bo‘lishi, kiyinishi emas, aksincha, uning ilohiy xislatlarni qanchalik ko‘p o‘zida singdirgani, insonlarga foydasi tegadigan yaxshi amallarni o‘zida jo qilganligidir. Navoiy uchun darvesh Xudo yo‘lida jamiki mushkulotlarga sabr qiladigan, do‘st-dushmani barobar bilib, oftob kabi saxiy kishidir. So‘fiy shoir ta‘kidicha, darveshman deb ko‘krak keradigan kishi, aslida, darvesh emas, aksincha, u kibru havoga berilgan odamdir. Darvesh odob va kamtarinlikda bashar ahliga ibrat vazifasini o‘tamog‘i darkor. Shundagina u rizo va taslim, fano va tamkin darajalariga yetishadi.

Ma‘lumki, malomatiya oqimi vakillari tashki ko‘rinishlarini xarobot holda ko‘rsatib va hattoki, kishilar ularni malomat qiladigan darajadagi harakatlarni qilardilar. Mazkur harakatlari ortida «Xalq bizni qancha malomat qilsa, biz Haq nazdida shuncha e‘tibor qozonamiz», — degan fikr yotardi. Hazrat Navoiyning so‘fiy xulq-atvoridagi malomatiylik jihatiga alohida e‘tibor qaratganligining boisi, malomatiyaning yuqorida ko‘rsatilgani kabi me‘yordan oshgan hatti-harakatlarini qo‘llab-quvvatlash emas, balki, ulardagi kamtarinlik, xokisorlik sifatlarini namoyon etishlarini ma‘qul ko‘rganidir. Navoiy darveshga xos bo‘lgan fazilatlarni sanar ekan, xalq og‘zaki ijodi namunasi bo‘lgan rivoyatdan ham mohirona foydalanadi. Darveshning ichki dunyosi bir xazina bo‘lsa, uning zohiri shu xazina yashirilgan xarobadir, - deydi muallif. Ijodkor bu o‘rinda qadimgi hukmdorlarning oltinu javohirlari vayronalar ichiga ko‘milgan bo‘ladi, degan rivoyatga belgi bermoqda. Orifning malomatlashligi - Xudodan va xalqdan nima kelsa uni rizolik bilan qabul qilib, bariga sabr qilishida ko‘rinadi. So‘fiyning dunyodan uzilib qolganiday bo‘lib qolishining sababi, uning butun borlig‘i bilan Mutlaq Ruh vujudiga singib ketganligidir.

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, Alisher Navoiy tavsifnomasi rizo, anoniyat (manmanlik), safo (ko‘ngil pokligi), fano, faqr, himmat, zohir, botin, surat, sir, ma‘no, qazo kabi mazmun-mohiyatiga ko‘ra bir-biriga mantiqan bog‘liqlikda va o‘zaro bir-birini izohlab keluvchi tushunchalarga asoslangan. Navoiy



ta'biricha, orif donishmand, bilguvchi, Haq ma'rifatidan boxabar, tom ma'noda Ollohni taniguvchi ma'rifatli kishidir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. «Markaziy Osiyo falsafiy tafakkuri taraqqiyotida tasavvuf ta'limotining o'рни va ahamiyati» mavzusida respublika miqyosidagi ilmiy–nazariy anjumani materiallari. Buxoro. 2020.
2. Komilov N. Tasavvuf. T.: “Movarounnahr” – “O‘zbekiston”, 2009.
3. Alisher Navoiy. MAT, 14-jild, 46-47-betlar.

# YOSHLARNING YUKSAK AHLOQIY-TARBIYAVIY SIFATLARINI KAMOL TOPTIRISHDA AMIR TEMURNING PSIXOLOGIK IBRATIDAN FOYDALANISH

**Zamira BILOLOVA,**

*Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd)  
Mahalla va oila ilmiy-tadqiqot instituti Matbuot kotibi*

O'zbekiston aholisining ko'pchiligini yoshlar tashkil etadi. Yoshlar manfaatini himoya qilish, barkamol bo'lib voyaga yetishlari va qulay shart-sharoitlarda o'qish, mehnat qilish va mamlakat ravnaqi uchun mehnat qilish imkoniyatlarini yaratish yoshlarga oid davlat siyosatining ustuvor yo'nalishidir.

Yoshlarning dunyoqarashi, hayotiy maqsadlari, ijtimoiy mo'ljallari, o'zlarini qanday tuta bilishlari mamlakatimizning kelajak taqdiri bilan juda uyg'un. Shuning uchun yoshlarda vatanparvarlik sifatlarini shakllantirishda noyob va bebaho boyligimiz rang-barangdir. Shu o'rinda buyuk bobolarimizning ma'naviy olami xususida fikr yuritganda, Sohibqiron Amir Temur haqida alohida to'xtalishimiz tabiiydir".<sup>76</sup>

XIV-XV asrlarda yozilgan "Temur tuzuklari", Nizomiddin Shomiy va Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma", Ibn Arabshohning "Ajoyib ul makdur fi axbori Temur" ("Amir Temur haqidagi xabarlarda taqdir ajoyibotlari") asarlarida Sohibqironning to'g'rilik, muruvvatlilik, el-yurtga mehr-muhabbatlilik, adolatlilik, mardlik va qahramonlik kabi insoniy fazilatlarini bayon etiladi. Shuningdek, bu asarlarda Amir Temurning davlatning obro'si, sharafi manfaati uchun vatanparvarlik xislatlarini o'zida, o'g'il va nabiralarida, qarindosh-urug'larida, harbiy boshliqlarida shakllantirish ishiga qanchalik jiddiy yondashgani, bu borada talabchanlik, qattiq qo'llikni shior etish zarurligi bayon etilgan. Amir Temurning shaxsiyatidagi bu xususiyatlar haqida "Temur tuzuklari"da batafsil ma'lumot berilgan.

---

<sup>76</sup> Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Т.: "Маънавият", 2008. Б. – 44.